



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 80 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash 10 <i>Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	10
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari 14 <i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	14
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari 19 <i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	19
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili 23 <i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	23
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi 30 <i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	30
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatning qiyosiy tahlili 35 <i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	35
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi 41 <i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	41
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish 47 <i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	47
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli 50 <i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	50
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari 54 <i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	54
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку 58 <i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	58
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari 66 <i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	66
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili 70 <i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	70
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinatal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish 75 <i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	75

TALABALARDA KELAJAKNI STRATEGIK MODELLASHTIRISH LAYOQATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBALARNING QIYOSIY-PEDAGOGIK TAHLILI

Sadriddinova Feruza Meliyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

<https://orcid.org/0000-0002-8678-4533>

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim talabalarida kelajakni strategik modellashtirish layoqatini shakllantirish muammosi qiyosiy-pedagogik jihatdan tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda ilg'or xorijiy va o'zbek pedagog olimlarning metodologik yondashuvlari, ta'lim platformalari, vizualizatsiya va keys-stadi usullari solishtirilib, o'zaro farqlar hamda transformatsiya omillari aniqlangan.

Kalit so'zlar: talabalar, strategik modellashtirish layoqati, qiyosiy-pedagogik tahlil, oliy ta'lim, kelajakni loyihalash, xorijiy tajriba, milliy metodika, prognostik fikrlash, pedagogik transformatsiya, ta'lim integratsiyasi.

Abstract: This article presents a systematic comparative pedagogical analysis of the development of strategic future modeling competence in university students. The study compares methodological approaches, educational platforms, visualization methods, and case-study analysis employed by leading international and Uzbek pedagogical scholars, identifying mutual differences and factors of transformation.

Key words: students, strategic modeling competence, comparative pedagogical analysis, higher education, future planning, international experience, national methodology, predictive thinking, pedagogical transformation, educational integration.

Аннотация: В статье представлен систематический сравнительно-педагогический анализ проблемы формирования компетенции стратегического моделирования будущего у студентов высших учебных заведений. В исследовании сравниваются методологические подходы, образовательные платформы, методы визуализации и анализа конкретных случаев, применяемые ведущими зарубежными и узбекскими педагогическими учеными, выявляются взаимные различия и факторы трансформации.

Ключевые слова: студенты, компетенция стратегического моделирования, сравнительно-педагогический анализ, высшее образование, проектирование будущего, зарубежный опыт, национальная методология, прогностическое мышление, педагогическая трансформация, образовательная интеграция.

KIRISH

Global raqobatbardoshlik, texnologik transformatsiyalar va deterministik jarayonlarning shiddatli tus olishi zamonaviy oliy ta'lim tizimi oldiga tubdan yangi, konseptual vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kun talabasi nafaqat tayyor fundamental bilimlarni o'zlashtirishi, balki noaniqlik sharoitida kelajak tendensiyalarini oldindan ko'ra bilishi, tahlil qilishi va shaxsiy hamda kasbiy traektoriyasini modellashtirishi zarur. Ushbu global talab xalqaro miqyosda tan olingan strategik hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, BMT va YUNESKO tomonidan ilgari surilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (SDG 4) hamda "Ta'lim-2030" Butunjahon deklaratsiyasida oliy ta'lim tizimining bosh maqsadi shunchaki axborot uzatish emas, balki yoshlarda global dunyo chaqiriqlariga javob bera oladigan uzoq muddatli rejalashtirish, tanqidiy va antitsipativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish ekanligi alohida belgilangan. Mazkur zaruriyat oliy ta'lim pedagogikasiga "kelajakni strategik modellashtirish layoqati" tushunchasini fundamental kompetensiyalardan biri sifatida olib kirdi.

Strategik modellashtirish layoqati deganda talabaning ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va kasbiy jarayonlarning uzoq muddatli istiqbollarini prognoz qilish, muqobil ssenariylarni loyihalash va shunga muvofiq qarorlar qabul qilish bo'yicha integral hamda integrallashgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar majmui tushuniladi. Ushbu layoqat talabalarda tizimli fikrlash, evristik tahlil va refleksiv pozitsiyani shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.



O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining bosh mazmuni ham aynan bo'lajak mutaxassislarda uzoq muddatli strategik fikrlash va kelajakni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi va kasbiy faoliyatga antitsipativ tarzda moslashish qobiliyatini yuzaga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan [1; 12-b.].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limning mazmuni tubdan modernizatsiya qilinishi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, kreativ va tizimli model-lashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi belgilangan [7; 84-b.].

Bu boradagi strategik maqsadlar doirasi yanada kengaytirilib, mamlakatimizni rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini xalqaro standartlarga yetka-zish, talaba-yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni iqtisodiyotning kelgusi ehtiyojlariga mos tu-shadigan global kompetensiyalar bilan qurollantirish eng asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi [2; 45-b.].

Biroq, zamonaviy ta'lim amaliyotida ushbu kompetensiyani tizimli shakllantirishning yagona pedagogik mexanizmi hali to'liq shakllanib ulgurmagan bo'lib, bu dunyo miqyosida va mamlakatimiz oliy ta'lim muassasa-larida turlicha yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik muammoning mohiyati shundaki, an'anaviy ta'lim modellari ko'p hollarda retrospektiv xarak-terga ega bo'lib, talabalarni o'tmish va hozirgi zamon tajribalari bilan ko'proq qurollantiradi, kelajakni loyihalash va antitsipatsiya (oldindan his qilish va tayyor turish) mexanizmlariga esa yetarli darajada e'tibor qaratmaydi. Vaholanki, zamonaviy mutaxassis o'z kasbiy faoliyatida duch keladigan muammolarning aksariyati chiziqli bo'lmagan strukturaga ega. Shu sababli, talabalarda kelajakni strategik model-lashtirish layoqatini rivojlantirish muammosi global ta'lim makonida va milliy qonunchiligimiz talablari doirasida fundamental tadqiqotlar obyektiga aylangan.

Ushbu yo'nalishda Riel Miller, Michel Godet, Peter Schwartz, Richard Slaughter hamda Sohail Inayat-ullah kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular strategik foresight, Futures Literacy, ssenariyli rejalashtirish, antitsipativ fikrlash va kelajak kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy hamda metodologik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ilg'or xorijiy mamlakatlar (AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Singapur, Janubiy Koreya) ta'lim tizimida ushbu yondashuvlar asosida keng qamrovli tadqiqotlar o'tkazilgan va o'ziga xos amaliy modellar yaratilgan [10; 114-b.].

Shuningdek, O'zbekistonda Rano Mavlonova, Baxrom Xodjayev, Nemat Muslimov va Ochil Hasanbo-yevalarning ilmiy tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, mustaqil ta'lim, kreativ fikrlash hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan strategik qaror va farmonlar ijrosini ta'minlash doirasida talaba-yoshlarning mustaqil fikrlashi, strategik rejalashtirish salohiyati va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan fundamental peda-gogik izlanishlar jadallashdi [7; 32-b.]. Mazkur ikki yo'nalishni qiyosiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish, milliy ta'lim muhiti uchun eng maqbul transformatsion elementlarni ajratib ko'rsatish va integratsiyalashgan modelni taklif etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tahlillarimiz davomida tadqiqotning metodologik asosi sifatida asosiy e'tiborni tizimli yondashuv, qiyosiy-pedagogik analiz, ssenariyli rejalashtirish hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga qaratdik. G'arbiy Yevropa va AQSh pedagogikasida strategik model-lashtirish asosan "Futures Literacy" (Kelajak savod-xonligi) konsepsiyasi doirasida o'rganiladi [3; 72-b.].

YUNESKO tomonidan ham faol qo'llab-quvvatlanadigan ushbu konsepsiya insonning kelajak haqida nima sababdan va qanday fikrlayotganini anglash, undan hozirgi kunda innovatsiyalar yaratish va qarorlar qabul qilish vositasi sifatida foydalanish ko'nikmasini anglatadi [3; 105-b.]. Ushbu yondashuv doirasida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida talabalar shunchaki rejalashtiruvchi emas, balki faol kelajak quruvchisi sifatida ko'riladi.

Mahalliy pedagogik makonda esa ushbu muammo uzoq yillar davomida kasbiy tayyorgarlik, akmeologik yondashuv va mustaqil fikrlashni shakllantirish kontekstida tadqiq etib kelindi. Sharqona falsafiy-pedagogik an'analarga tayanib, o'zbek olimlari talabaning kelajakni loyihalash layoqatini uning ma'naviy-axloqiy yetukligi, mas'uliyati va milliy o'zlikni anglashi bilan uzviy aloqadorlikda ko'rib chiqadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy tajribaning tarkibiy qismlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, G'arb oliy ta'lim muassasalarida (masalan, Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT), Oksford universiteti yoki Singapur Milliy Universiteti) strategik model-lashtirish layoqatini shakllantirish asosan amaliy-pedagogik simulyatsiyalar, "Foresight" (Forsayt) texnologi-



yalari va uzoq muddatli keys-stadi (Case study) metodlariga tayanadi [4; 55-b.]. U yerda talabalar iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy tizimlarning 20–30 yildan keyingi holatini matematik va sotsiologik modellar yordamida prognoz qilishni o'rganadilar [8; 40-b.]. Talabaga muammoning aniq yechimi berilmaydi, aksincha, unga muqobil ssenariylarni (eng optimal, eng yomon va kutilmagan ssenariylar) ishlab chiqish strategiyasi o'rgatiladi. Bunday pedagogik yondashuv talabada tahliliy komponent va adaptivlik darajasini keskin oshiradi.

Bunga parallel ravishda, mahalliy oliy ta'lim amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak, yurtimizda ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish bosqichida talabalarning mustaqil ta'lim traektoriyasini belgilash imkoniyatlari (kredit-modul tizimi doirasida) kengaytirildi [7; 112-b.].

Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida va ta'lim dasturlarida strategik modellashtirish asosan talabaning kelajakdagi kasbiy modeli (professional profile) bilan cheklanib qolayotgani kuzatiladi [5; 58-b.]. Ya'ni, e'tibor ko'proq talabaning pedagog yoki muhandis sifatida kelajakda qanday ishlashiga qaratilgan bo'lib, keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy va global tizimlarni modellashtirish aspekti biroz soya ostida qolmoqda.

Biroq, mahalliy tajribaning o'ziga xos yutug'i shundaki, unda talabaning shaxsiy rivojlanish strategiyasi ustoz-shogird tizimi orqali chuqur mental va emotsional motivatsiyaga ega bo'ladi [5; 120-b.]. Bu esa xorijdagi pragmatik yondashuvdan farqli o'laroq, talabada nafaqat sovuqqon tahlil, balki ijtimoiy mas'uliyat hissining ham yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Ikki xil pedagogik tizimning ushbu metodologik va konseptual farqlari hamda ularning amaliyotdagi ko'rinishlari ta'lim mazmunini boyitish uchun fundamental zamin yaratadi.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning prognostik salohiyatini yuzaga chiqarish va ularda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini tarkib toptirish murakkab va ko'p bosqichli pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonni chuqur anglash va qiyosiy jihatdan tizimlashtirish maqsadida, avvalo, xorijiy va mahalliy ta'lim modellarining instrumental-texnologik asoslariga nazar tashlash lozim.

G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika oliy ta'lim makonida, xususan, Finlyandiyaning Turku universiteti qoshidagi "Finland Futures Research Centre" (Finlyandiya kelajakni tadqiq qilish markazi) kabi yetakchi tuzilmalarda strategik modellashtirish shunchaki qo'shimcha ko'nikma emas, balki alohida fanlararo fanning asosi sifatida o'qitiladi [6; 28-b.]. Bu yerda pedagogik jarayon "Ssenariyli tahlil" va "Tizimli dinamika" metodologiyalariga tayanadi.

Talabalar ijtimoiy-pedagogik va iqtisodiy tizimlarning rivojlanish trayektoriyalarini maxsus raqamli vizualizatsiya va simulyatsiya dasturlari yordamida modellashtiradilar. Masalan, pedagogika va ijtimoiy fanlar yo'nali-shidagi talabalar 2040-yilda ta'lim tizimida sun'iy intellekt va neyrotehnologiyalarning o'rni qanday bo'lishini prognoz qiluvchi trendlar xaritasini, ya'ni Trend Mappingni chizadilar [11; 3150-b.]. Mazkur xorijiy tajribaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u talabani noaniqlik sharoitida ishlashga, kutilmagan ijtimoiy "shok"lar va texnologik sakrashlarga (disruptive innovations) nisbatan psixologik hamda intellektual tayyor bo'lishga o'rgatadi.

Qiyosiy tahlil doirasida xorijiy va mahalliy yondashuvlarning o'ziga xos konseptual hamda instrumental jihatlarini aniqroq ko'rish uchun quyidagi strukturaviy indikatorlar jadvalini keltirish mumkin (1-jadval):

1-jadval: Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili

Tahlil mezonlari (Indikatorlar)	Ilg'or xorijiy tajriba (AQSh, Yevropa, Singapur)	Mahalliy tajriba (O'zbekiston oliy ta'limi)
Konseptual yondashuv	"Futures Literacy", global kompetensiyalar va texnologik antitsipatsiya.	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ustoz-shogird an'anasi va kasbiy-akmeologik model.
Pedagogik vositalar	Raqamli simulyatsiyalar, Forsayt sessiyalari, muqobil ssenariylar loyihasi.	Keys-stadi (Case study), muammoli ta'lim, mustaqil ta'lim topshiriqlari.
Modellashtirish ob'ekti	Keng ko'lamli ijtimoiy, global va fanlararo tizimlar (20–30 yillik istiqbol).	Konkret kasbiy faoliyat komponentlari, shaxsiy va lokal strategiyalar (5–10 yillik istiqbol).
Baholash mezonlari	Ssenariylarning kreativligi, moslashuvchanlik, evristik va tizimli fikrlash darajasi.	Fundamental bilimlar integratsiyasi, amaliy ko'nikmalarning shakllanganligi va mas'uliyat.

Mahalliy ta'lim tizimimizda so'nggi yillarda, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash tizimiga o'tilishi bilan ushbu muammoga yondashuv tubdan o'zgardi [2; 48-b.].

Milliy pedagogik makonda talabalarning strategik layoqatini oshirish uchun asosan keys-stadi hamda muammoli ma'ruzalar texnologiyasidan keng foydalanilmoqda. O'zbekiston pedagog olimlarining tadqiqotlarida bu jarayon talabalarning refleksiv salohiyati, ichki motivatsiyasi va shaxsiy intilishlari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Sharqona ta'lim modelining o'ziga xos jihati - "Ustoz-shogird" tizimi bo'lib, unda talaba o'z kela-



jagini professional ustozning real hayotiy va ilmiy tajribasini modellashtirish orqali shakllantiradi [5; 92-b.]. Bu esa yoshlarda mavhum maqsadlar o'rniga aniq va hayotiy qadriyatlarga asoslangan uzoq muddatli rejalarni tuzish imkonini beradi.

Biroq, zamonaviy amaliyot shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (Student-centered learning) sharoitida ushbu ikki yondashuvning sintezini talab etmoqda. Masalan, mahalliy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarining loyihaviy xarakterga o'tkazilishi strategik modellashtirish uchun amaliy maydon bo'lib xizmat qiladi. Endilikda talaba shunchaki nazariy ma'lumotlarni umumlashtirmaydi, balki o'zi tanlagan sohaning kelajakdagi 5-10 yillik rivojlanish modelini hamda uning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini loyihalashtiradi [7; 140-b.].

Ushbu jarayonda talabalar duch keladigan asosiy pedagogik to'siqlardan biri - "chiziqli fikrlash stereotipi" (stereotypic linear thinking) hisoblanadi. Talabalar ko'pincha kelajakni hozirgi kunning oddiy va tekis davomi sifatida tasavvur qiladilar. Vaholanki, zamonaviy dunyo chiziqli bo'lmagan va sinergetik qonuniyatlar asosida rivojlanadi [6; 52-b.]. Shu sababli, amaliy pedagogik darslarda G'arbning Forsayt, ya'ni istiqbolni ko'ra bilish texnologiyalarini o'zbekona ta'lim muhitiga moslashtirgan holda joriy etish yuqori samara beradi [11; 3150-b.].

Masalan, talabalarga "Kelajak g'ildiragi" (Futures Wheel) metodi yordamida biror global ijtimoiy yoki texnologik o'zgarishning, aytaylik, ta'limning to'liq virtual rejimga o'tishi birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali oqibatlarini zanjirsimon shaklda modellashtirish topshirig'i beriladi [8; 64-b.]. Bu mashq talabada oddiy sabab-oqibat aloqalaridan tashqariga chiqib, murakkab tizimli va global darajada fikrlash ko'nikmasini, ya'ni strategik intuitsiyani rivojlantiradi. Pedagogik integratsiyaning ushbu amaliy elementlari talabalarni faqat bugungi kun uchun emas, balki hali mavjud bo'lmagan kelajak kasblari va ijtimoiy voqeliklar uchun tayyorlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur kompetensiya zamonaviy oliy ta'lim tizimining sifati va raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. G'arbiy Yevropa va AQSh ta'lim tizimidagi "Kelajak savodxonligi" (Futures Literacy) va Forsayt texnologiyalari talabalarda yuqori moslashuvchanlik, noaniqlik sharoitida muqobil ssenariylarni loyihalash va tizimli dinamikani tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda boy instrumental bazaga ega [3; 145-b.; 4; 78-b.].

O'z navbatida, milliy oliy ta'lim amaliyoti o'zining shaxsga yo'naltirilganligi, ma'naviy-axloqiy mas'uliyat omillari va "Ustoz-shogird" tizimi orqali strategik rejalashtirishga kuchli emotsional va qadriyatli poydevor yaratadi [5; 104-b.].

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, kelajak ta'lim modeli ushbu ikki yondashuvning mexanik birlashuvidan emas, balki ularning chuqur pedagogik sintezidan iborat bo'lishi lozim. Xorijiy tajribaning ilg'or texnologik va raqamli simulyatsiya vositalarini milliy ta'lim muhiti hamda madaniy-mental xususiyatlariga integratsiya qilish orqali talabalarda nafaqat pragmatik, balki ijtimoiy yo'naltirilgan strategik fikrlashni shakllantirishga erishish mumkin [11; 3150-b.]. Bu esa yosh kadrlar guruhiga global o'zgarishlarga tayyor turish bilan birga, milliy taraqqiyot strategiyalarini chuqur anglagan holda faoliyat yuritish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning strategik modellashtirish layoqatini tizimli rivojlantirish maqsadida quyidagi ilmiy-pedagogik tavsiyalar taklif etiladi:

- 1. O'quv rejalari fanlararo modullarni kiritish.** Oliy ta'lim o'quv dasturlariga global trendlarni tahlil qilish, antitsipatsiya va ssenariyli rejalashtirish asoslarini qamrab olgan "Kelajakni strategik modellashtirish va Forsayt" deb nomlangan fanlararo maxsus kurslarni tanlov fanlari sifatida joriy etish.
- 2. Pedagogik vositalarni modernizatsiya qilish.** An'anaviy ma'ruza darslaridan "Kelajak g'ildiragi" (Futures Wheel), muqobil ssenariylar tahlili va raqamli prognostik simulyatsiyalar kabi interaktiv hamda evristik metodlarga faol o'tish. Talabalarni faqat tayyor yechimlarni izlashga emas, balki kutilmagan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning muqobil modellarini yaratishga o'rgatish.
- 3. Mustaqil ta'lim traektoriyasini loyihalash.** Kredit-modul tizimi imkoniyatlaridan kelib chiqib, talabalarning bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzularini ko'proq loyihaviy-prognostik xarakterga o'tkazish. Bunda talabaga o'zi tanlagan sohaning kelgusi 10-15 yillik rivojlanish modelini ilmiy asoslash majburiyatini yuklash.
- 4. Ustoz-shogird tizimini strategik yo'naltirish.** Ilmiy rahbarlik institutini shunchaki akademik maslahatchilikdan professional kouching va strategik mentorlik darajasiga ko'tarish. Bunda ustoz shogirdning shaxsiy va kasbiy rivojlanish traektoriyasini uzoq muddatli maqsadlar bilan muvofiqlashtirishga ko'maklashishi zarur.



- 5. Raqamli tahlil markazlarini tashkil etish.** Oliy ta'lim muassasalari qoshida talabalar va yosh tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan "Pedagogik foresayt va strategik loyihalar laboratoriyalari"ni tashkil etish, bu yerda talabalarning innovatsion g'oyalarini tizimli modellashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Miller, R. (2018). Transforming the Future: Anticipation in the 21st Century. Paris: UNESCO Publishing / Routledge.
4. Inayatullah, S. (2015). What Works: Case Studies in Foresight. Tamsui: Tamkang University Press.
5. Muslimov, N. A. (2014). Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Poli, R. (2017). Introduction to Anticipation Studies. Cham: Springer.
7. Sharipov, Sh. S. (2020). Oliy ta'limda talabalarning ijodiy va strategik salohiyatini rivojlantirish tizimi. Toshkent: TTPU.
8. Bishop, P., & Hines, A. (2012). Teaching about the Future. New York: Palgrave Macmillan.
9. Bell, W. (2003). Foundations of Futures Studies: Human Science for a New Era (Vol. 1). New Brunswick: Transaction Publishers.
10. Sadriddinova F.M. Sun'iy intellekt vositasida talabalarning foresayt qobiliyatlarini rivojlantirish: integrativ yondashuv amaliyoti. "Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy boshqaruvni optimallashtirish: samaradorlik, innovatsiya va barqaror rivojlanish" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi 2026 y. 13-14 mart. 3150 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.